

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**YULDASHOVA NILUFAR ZIYABAYEVNA**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVIS  
XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-  
IQTISODIY MEXANIZMLARI**

**08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Yuldashova Nilufar Ziyabayevna**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari..... 3

**Юлдашова Нилуфар Зиябаевна**

Организационно-экономические механизмы повышения эффективности услуг агросервиса в условиях цифровой экономики.....27

**Yuldashova Nilufar Ziyabayevna**

Organizational and economic mechanisms of increasing the efficiency of agroservice services in the digital economy.....51

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....55

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**YULDASHOVA NILUFAR ZIYABAYEVNA**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVIS XIZMATLARI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY  
MEXANIZMLARI**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand– 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1784 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xoliqulov Anvar Nematovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ergashev Raxmatilla Xidirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mardonov Baxodir Baxronovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-38-72, Faks: (99866) 231-12-53; e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( "\_\_\_" raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (998 66) 233-38-72, Faks:(998 66) 231-12-53; e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.E.Po'latov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

**M.M.Muhammedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi sharoitida agroservis xizmatlarini samarali rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning agroservis xizmatlarini rivojlantirish darajasiga ko‘ra, 2023-yilda eng yuqori ko‘rsatkichlari bilan AQSH, Kanada, G‘arbiy Yevropa davlatlari alohida ajralib turadi. Agroxizmatlarining o‘sishi AQSHda 28%, Kanadada 27%, Germaniyada 19%, Birlashgan Qirollikda 18%, Italiyada 16%ni tashkil etadi<sup>1</sup>. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jahonda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tadqiq etish davomida, o‘sha davlatlarda agroservis sohasining rivojlanish darajasi ham o‘rganib chiqildi. Jahonda oxirgi yillarda iqtisodiyot yuqori sur‘atlar bilan rivojlanmoqda, lekin COVID-19 pandemiyasi sababli, 2019-yilda iqtisodiyot rivojlanishi sezilarli darajada sekinlashdi. Pandemiyaning asosiy ta‘siri va majburan qabul qilingan karantin choralarini agroservisda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarini faoliyatiga ham ta‘sir qildi. Ya‘ni, agroservis korxonalarini o‘z ishlarini vaqtincha to‘xtatib turishdi; ushbu korxonalarining xizmatlariga talab kamaydi. Ammo, 2020-yilning yakunlariga ko‘ra, pandemiyadan keyingi davrlarda, agroservis xizmatlari bir maromda rivojlanib kelmoqda<sup>2</sup>.

Jahonda agrar sohasi rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligidagi barcha sohalarida kooperatsiya bilan servis tizimini o‘zaro rivojlantirish trendiga ega bo‘lmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning agroservisga sarflangan xarajatlar samaradorligi davlat iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga, hamda raqobatbardoshligining oshib borishiga olib kelmoqda. Shu sabab, yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishini xohlagan mamlakatlarda agroservis sohasi rivojlanishiga va takomillashtirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Lekin, mamlakatimizda fermer va uy xo‘jaliklariga ko‘rsatilayotgan agroservis xizmatlari raqamli iqtisodiyot sharoitida sifatli va samarali olib borilmaganligi sababli, agroservisda samaradorlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan; va ushbu sohada bir qator muammolarni yechishga zaruriyatni bildiradi.

Mamlakatimizda Prezidentimizning 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qaroriga muvofiq agroservis sohasini qo‘llab-quvvatlash doirasida Milliy bank hududlarda agroxizmat ko‘rsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirgan. Buning uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 1,5 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ jalb etilgan<sup>3</sup>. Respublikamizda iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning hajmi 2022-yilda 357 554,5 mlrd. so‘m bo‘lsa, shundan agroxizmatlar hajmi 270900,3 mlrd. so‘mni tashkil etadi<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Jahon Banki ma‘lumotlari.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “2020-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarish to‘plami”. Toshkent, 2020-y.

<sup>3</sup> Узнацбанк: успехи и достижения в 2021 году/ UzReport.news.

<sup>4</sup> <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

Agroservis sohasidagi xizmatlar hajmini tahlil qilganimizda, 2010 yilda 106 % bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, o'sish sur'ati 103,6 % tashkil qiladi, ya'ni 2010- yilga nisbatan 2022-yilda 102 % foizga oshirilgan. Shu sababdan, respublikamizda agroservis xizmatlarining samaradorligini oshirish borasida ilmiy-tadqiqotlarni olib borilishi obyektiv zarurat deb hisoblaymiz. Qishloq aholi ehtiyojlari hamda hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqqan holda jalb qilingan mablag'lar xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan. Mamlakatimizda agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishga oxirgi yillarda juda katta e'tibor qaratilib kelmoqda.

Bugungi kunda Respublikamiz Prezidentining bir qator Farmonlari va ular asosida qabul qilingan hukumat qarorlarida qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi agroservis subyektlarini ustuvor rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar asosida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Agrar tarmoqda xizmatlar sohasi muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan Respublikamizda agroservisning rivojlanishini ta'minlash, shu sohada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi uchun yangi ish o'rinlarni yaratish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752-sonli Qarorida bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi PF-5853-sonli Farmoni; 2018-yil 10-maydagi "Qishloq xo'jaligini o'z vaqtida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3712-sonli qarori; 2021-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-sonli Farmoni; 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni; 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari hamda agroservis sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Hozirgi kunda ushbu jarayonning tegishli me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilinmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va hududiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Agrar sohada va agroservisda xizmat rivojlantirish, sifat va samaradorlikni oshirish, takomillashtirish bo'yicha bir qancha olimlarning ilmiy ishlarida qarab chiqilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi

olimlardan – P.Samuelson, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu<sup>5</sup>, P.I.Chujinov, I.Ya.Petrenko, L.I.Abalkin, I.N.Buzdalov, Ye.S.Pansxava, G.A.Avanesova, I.A.Senyugina va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin<sup>6</sup>.

Mamlakatimizda agroservis sohasining rivojlanish tendensiyalari, rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, samaradorlik ko'rsatkichlari, agroservis samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari bo'yicha E.A.Akramov, E.A.Toirov, A.A.Abdug'aniev, A.V.Vahobov, S.S.Gulyamov, I.T..Abdukarimov, M.M.Muxammedov, M.Q.Pardaev, G.X.Qudratov, Q.J.Mirzaev, O.Murtazaev, M.E.Po'latov, A.N.Xoliqulov, N.S.Xushmatov, R.X.Ergashev, Z.M.Muqimov, S.N.Hamraeva, B.B.Mardonov, F.B.Axrоров, G'.A.Ibragimov va boshqa iqtisodchi olimlarning<sup>7</sup> ilmiy ishlarida tadqiq etilgan

<sup>5</sup>Макконналл К.Р., Брю С.Л., Экономика.-Принципы, проблемы и политика./В 2-х томах. Пер.с англ.-Таллин. Римол.1993 г.,Т.1.-398с.;Котлер Ф.Основы маркетинга.-М.: Прогресс,1992.-734с.;Самуэльсон П.Экономика.-М.,1992.Т.2.; Хоскинг А.,Курс предпринимательства.-М.: Международные отношения,1993г.-478с. Смит А. Исследование о прероде и причинах богатств народов. - М.: Соц. эгиз, 1962, - С. 332.

Самуэльсон П. Экономика /П.Самуэльсон. - М.,1992. -Т. 1. -740 с. Scott W. R. Institutions and organization: Ideas, interests, and identities.- SAGE publications, 2013. Triplett J.E., Bosworth B.P. Productivity in the US services sector: new sources of economic growth. – Brookings Institution Press, 2004.

<sup>6</sup>Чужинов П.И., Петренко И.Я. Экономика сельскохозяйственного производства.-Алма-Ата: Кайнар, 1992г.-560с.; Абалкин Л.И. Курс переходной экономики.-М.:Финстатинформ,1997г.-640 с.; Бuzдалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепция, опыт, перспективы).-М.,2000. -325с.; Панцхава Е.С. Биознергетика в современном и будущем сельскохозяйственном производстве//Энергия: экономика,техника,экология. – 2018. - №1.-с.40-46; №2. – с.17 -23. Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А. Сфера услуг: Экономика: учебное пособие// М.: кнорус. – 2007. -Т. 328. Романович В.К. Сервисная деятельность. учеб. пос.: под общ. ред. В.К.Романович. / С.Н. Коробкова, В.И. Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова -3-е изд.-СПб.:Питер, 2005.-156 с. Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности: Учебное пособие.-М.: ИНФРА-М, 2006. Шеремет А.Д. «Теория экономического анализа». М., ИПО «МП», 2002., Аванесова Г.А. Сервисная деятельность: Историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: Учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2005. – 316 с.; Сенюгина И.А. Организационные основы агросервисных услуг. Сборник научных трудов. “Экономика”, Ставрополь, 2002. 178 с.

<sup>7</sup>Акромов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати. Ўқув қўлланма.-Т.:2007.; А.А.Абдуғаниев, А.Абдуғаниев. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти (дарслик). Тошкент, 2010.; С.С.Ғуломов ва бошқалар. Рақамли иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Тошкент – Иқтисодиёт: 2020.; Абдукаримов Б. ва бошқалар. Хизматлар ва сервис соҳаларининг моҳияти, самарадорлигини ошириш ҳамда фаолиятини такомиллаштиришни илмий-назарий ва амалий масалалари (Самарқанд, 2010, 6-10 апрел); Пардаев М.Қ. Агросервис хизмати самарадорлиги//Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги.-Тошкент, 2011.-№2.-28 б.;Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.- Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2014. – 383б.; Ғ.Х.Қудратов, Қ.Ж.Мирзаев, М.Қ.Пардаев. Агросервисни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2007.- 16б.; Муртазаев О. ва бошқалар. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти.-Т.: ИLM-ZIYO, 2017.; Абдуллаев Ё.А. Бозор иқтисодиёти асослари.-Т.: Меҳнат, 2002.-297 б.; Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик, Т.: “Молия-Иқтисод”, 2018, 404 б. Абдукаримов И Т., Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи. 2003. - 256 бет. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”. Darslik. Т.: “Sharq”, 2005 у.Гулямов С.С. Основные тенденции развития цифровой экономики в Узбекистане: 10 новых технологий //Современные проблемы права и управления. - 2019. - С. 12-16. Мирзаев Қ. Ж. Агросервис хизматлари самарадорлигини оширишнинг методологик масалалари. Монография. - Т.: “Iqtisod - moliya” нашриёти, 2010. - 164 б., Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Иноватсион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021. 186 б.; Мухаммедов М.М. Қишлоқларда хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. Республика илмий-амалий анжумани. СамИСИ, СамДУ. 2014, 12-14 ноябр; Муртазаев О., Ахроров Ф.Б. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. –Т.: Илм-Зиё, 2017. – 416 б. Pardayev M.Q., Pardayev O.M., Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A. Raqobatbardoshlikni mustahkamlashda klaster va sinergetik samaradoklik tahlili. O'quv-qo'llanma, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 256 б.; Тошназаров С. Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: “Наврўз”, 2016 й. – 295 б. Уразов К.Б., Худайбердиев Н.У., Аннаева М.Б., Исроилов Ё.Ж., Пашаходжаева Д.Д., Мардонов М.Ш. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб муаммолари.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarida agroservisga oid ilmiy izlanishlarining bu soha rivojiga qo‘shgan ulkan hissalarini inkor etmagan holda shuni ta’kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida, xususan, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichi talablari doirasida agrar tarmoqda agroservisni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va samaradorligini oshirish masalalari chuqur va keng ko‘lamda alohida tadqiq etilmagan. Ayniqsa, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida erishilgan yutuq va muammolarni tahlil qilish, xorijiy mamlakatlar tajribalarini umumlashtirish asosida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida agroservisni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim bo‘lib, bu o‘z navbatida mazkur dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

mamlakatimiz iqtisodiyotida agroservis xizmatlarining tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rganib chiqish;

agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning nazariy qarashlar talqinini o‘rganib chiqish;

agroservisni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganib, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

agroservis xizmatlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish;

agroservis xizmatlarini samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish yo‘llarini yoritib berish;

agroservis xizmatlari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi tahlilini yoritib berish;

agroservis xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va takomillashtirish;

---

Монография. – Т.: ”Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. – 260 бет. Xudayberdiyev U.X., Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand, SamISI, 2020 yil – 124 bet. Kudratov F.X., Parдаев M.K., Абдукаримов B.A. “Сервис ривожі – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили”. Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2007. – 12 б., Муқимов З.М. Фермер хўжаликлариға хизмат кўрсатиш ва моддий техник таъминоти тизимини такомиллаштириш йўллари: Иқт.фан.ном.илм.дар. ....дисс.-Т.: 2009.-22 б.; Ҳамраева С.Н. Қишлоқ хўжалиғига хизмат кўрсатувчи инфратузилмани инноватсион ривожлантириш асосларини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. илм. дар. ... дисс. автореф. – Т.: 2019. – 41 б. Ибрагимов F.A. Агрохизмат корхоналари ва фермер хўжаликлари ўртасидаги иқтисодий муносабатлар самарадорлигини ошириш. Иқт.фан.ном.илм.дар. ....дисс.-Нукус.: 2023.- 6-7 б.

mamlakatimizda agroservis xizmatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

agroservis xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha prognoz parametrlarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Samarqand viloyatida agroservis sohasi va uning tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik subyektlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik sintez va analiz, kuzatish va so‘rov usuli, shuningdek, iqtisodiy-matematik modellar, taqqoslash, qiyosiy va omilli tahlil, statistik va ekonometrik kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

agroservis xizmatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarini o‘rganib, taraqqiyot strategiyasi talablariga mos “agroservis sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar”, “agroservis xizmatlari”, “agroservis sohasi samaradorligi”, “agroservis sohasi rentabelligi” tushunchalarining ta‘riflari takomillashtirilgan;

raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib, agroservisda xizmat ko‘rsatuvchi korxonlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimlashtirilgan va ularga ta‘sir qiluvchi omillarning funksional bog‘liqligini inobatga olib, aniqlash yo‘llari takomillashtirilgan;

agroservis xizmatlarini iqtisodiy mazmuni va bajarilish joyiga qarab ilk bor guruhlashtirilgan, ularning hajmini ko‘paytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar takomillashtirilgan;

agroservis korxonalari soni va agroservis sohasiga kiritiladigan investitsiyalarning agroservis xizmatlariga ta‘sirini korrelyatsion tahlil qilish natijasida, mamlakatimizda agroservis xizmatlarini 2024-2029-yillarga kutiladigan hajmini prognozlash imkonini beruvchi algoritim ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir agroservis xizmat ko‘rsatish korxonasi servis sifatini o‘nglashi uchun, o‘zining raqobatbardoshligini mustahkamlab borishi uchun xarajatlarning samaradorlik darajasini oshirib borish lozimligi aniqlangan;

agroservis xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘llari, ularni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishda, samaradorlik ko‘rsatkichlarni baholash borasida iqtisodiy va moliyaviy asoslar yetishmasligi salbiy ta‘sir etayotganligi aniqlangan;

agroservis xizmatlarini rivojlantirish omillarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlaydigan multiplikativ modeli ishlab chiqilgan va ushbu model asosida agroservis xizmatlarini rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillar va ularni tahlil qilish yo‘llari takomillashtirilgan;

agroservisda olib borilgan korrelyatsion-regression tahlil natijasida ishlab chiqilgan regressiya tenglamasi orqali sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini

ixtiyoriy foizga oshirish natijasida agroservis xizmatlari hajmini prognozini qilish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rganish va ishlab chiqish jarayonida qo'llanilgan ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlarning tadqiqot maqsadi, hamda vazifalariga mosligi, ularning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, tahlil uchun olingan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba va sinov ishlari agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot davomida erishilgan natijalarning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishda agroservisning muhim omillaridan bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini hozirgi davr talabiga mos shakllantirishda va agroservis xizmatlarini baholash yo'llarini takomillashtirish masalalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bevosita O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini, agrar sektorda agroservis xizmatlarini takomillashtirish yo'nalishidagi ustuvor vazifalarni belgilashda, hamda iqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" kabi fanlardan o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda va ushbu fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, maqsadli ustuvor yo'nalishlarga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatiga raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion chora-tadbirlarni baholash va tanlash imkoniyati yaratiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanish uslublari, tamoyillari, mezonlari, mexanizmlari bo'yicha olingan xulosa va nazariy bilimlar Davlat va xizmat ko'rsatuvchi subyektlari faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishda taraqqiyot strategiyasi talablariga mos "agroservis xizmatlari", "agroservis sohasi samaradorligi", "agroservis sohasi rentabelligi" tushunchalarining takomillashtirilgan ta'riflari ilmiy tavsiyalarda keng yoritilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan 23.04.2024-yilda № DGU 37152-sonli guvohnoma). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, agroservisda xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga, ushbu sohada tadqiqot ishlarini olib borayotgan izlanuvchilarga, talabalarga takomillashtirilgan ta'riflar asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

tadqiqot ishining ilmiy xulosa va nazariy-uslubiy ishlanmalardan viloyatimiz qishloq xo‘jaligi korxonalariga ko‘rsatilayotgan agroservis xizmatlarining nazariy asoslarini tadqiq etishda, agroservis xizmatlari samaradorligini hisoblash tizimini takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Samarqand viloyat “Agroservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyati agroservis xizmatlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni o‘rganish uchun qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining 23.04.2024-yildagi № DGU 37152-sonli guvohnomasi, 23.04.2024-y; O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 28-may 05/06-02-379-sonli ma’lumotnomasi, Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2023-yil 14-noyabrdagi 01/031-1461-sonli ma’lumotnomasi, Samarqand viloyat “Agroservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil 13-noyabrdagi ma’lumotnomasi);

agroservis xizmatlarini rivojlantirish omillarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydigan multiplikativ modeli ishlab chiqildi va ushbu model asosida agroservis xizmatlarini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash tizimini takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Samarqand viloyat “Agroservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyati agroservis xizmatlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni o‘rganish uchun qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining 23.04.2024-yilda № DGU 37152-sonli guvohnoma, 23.04.2024-y; O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 28-may 05/06-02-379-sonli ma’lumotnomasi, Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2023-yil 14-noyabrdagi 01/031-1461-sonli ma’lumotnomasi, Samarqand viloyat “Agroservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil 13-noyabrdagi ma’lumotnomasi);

agroservis xizmatlari samaradorligini aniqlashda iqtisodiy jihatdan mazmunga ega bo‘lgan  $Y=0,000113156 \cdot X_1 + 30.7015$  regressiya tenglamasi tuzilib, mamlakatda agroservis xizmatlari hajmining keyingi olti yillik prognozini ishlab chiqishda foydalanilgan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Samarqand viloyat “Agroservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan agroservis sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini ixtiyoriy foizga oshirish natijasida agroservis xizmatlari hajmini prognozini qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan 23.04.2024-yilda № DGU 37152-sonli guvohnoma, 23.04.2024-y; O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 28-may 05/06-02-379-sonli ma’lumotnomasi, Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2023-yil 14-noyabrdagi 01/031-1461-sonli ma’lumotnomasi, Samarqand viloyat “Agroservis MTP” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023- yil 13-noyabrdagi ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi agroservisning rivojlanishi, agroservisda samaradorlikni oshirishda qo‘llanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusida jami 33 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan jurnallarda 12 ta maqola, shundan 9 ta maqola respublika va 3 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz iqtisodiyotida agroservis xizmatlarining tutgan o‘rni va ahamiyati, agroservisni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, hamda agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining nazariy qarashlar talqini keng yoritib berilgan. Mazkur bob bo‘yicha tegishli xulosalar ham keltirilgan.

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida xizmatlar sohasi yuqori sur‘atlar bilan rivojlanadi. Bunga mamlakat Prezidenti tomonidan chiqarilgan qarorlar, hukumat tomonidan xizmat turlarini ko‘paytirish va hajmini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2019 yilda mamlakatimizning YaIM 5,5 foizga o‘sgan bo‘lsa, xizmatlar ko‘rsatish sohasi o‘tgan yilga nisbatan – 6,1 foizga o‘sdi. Xuddi shunday tarzda keyingi yillarda ham yuqori sur‘atlar bilan rivojlandi. 2020 yilda pandemiya sharoitida ham mamlakatning YaIM - 1,6 foizga o‘sgan bo‘lsa, xizmatlar ko‘rsatish hajmi – 2,3 foizga o‘sgan. 2023 yilda mamlakat YaIM – 6 foizga o‘sgan bo‘lsa, xizmatlar sohasi – 6,8 foizga ko‘paygan<sup>8</sup>.

Agrar sohada raqamlashtirishning birinchi jarayoni Prezidentimizning 2019-yil 23-oktabrdagi 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorni imzolash bilan boshlandi.

Ushbu strategiyani maqsadi ko‘rsatilgan yillar davomida qishloq xo‘jaligida fan yutuqlarini qo‘llab, raqamli texnologiyalarni kiritish va takomillashtirish, ya‘ni Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

---

<sup>8</sup> <https://stat.uz> maълumotlari asosida ishlab чиқилган


keng joriy etish – qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida belgilangan<sup>9</sup>.

Bizning fikrimizcha, raqamlashtirish jarayoni tobora jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan ekan, avvalambor agrar sohada fermer va dehqonlar o‘zlaridan boshlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi, ya’ni tadbirkorlar, o‘z resurslarini tejab, samaradorlikka erishish bir vaqtning o‘zida veb-platformalarda o‘zi uchun qanday qulayliklar va imkoniyatlarga ega bo‘ladi, va bevosida o‘z faoliyatida shuni qo‘llaydi.

Agroservisda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni soddalashtirishga yordam beradi, ya’ni:

- raqamli platformalarga kirish;
- hujjat aylanishini osonlashtirish;
- imtiyozli kreditlar olish.

Biz, agrar sohada samaradorlikni oshirish, agromahsulotlarni yetkazish, chorvachilikni rivojlantirish, agroxizmatlarni va agrotexnikani rivojlantirish - bularning hammasi uchun agroservisning butun tizimi sifatida vosita deb hisoblaymiz. Agroservis xizmatlarning tarkibini ko‘radigan bo‘lsak, ular bir nechta turlardan iborat. Buni biz 1-rasmada ifoda etamiz:



**1-rasm. Agroservis xizmatlari turlari<sup>10</sup>**

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-sonli farmoni.

Raqamlashtirish jarayoni to‘liq joriy etilsa, bevosita agroservisda xizmat ko‘rsa-tuvchi korxonalarda quyidagi ustuvor vazifalar bajariladi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo‘yicha xarajatlar kamayadi;

- qishloq xo‘jalikda ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshiradi;

- mahsulot tannarxida moddiy xarajatlar ulushini kamaytiradi;

- agrar sektorning servis sohasida onlayn-xizmatlar va ma‘lumotlar bazasini raqamli integratsiyasini takomillashtiradi;

- agroservisda barcha agentlar uchun boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshiradi.

Bizning fikrimizcha, **agroservis xizmat deganda, qishloq xo‘jaligida mahsulotlarni yetishtirish bilan shug‘ullanadigan subyektlarga sohaga oid yerga ishlov berish, suv bilan ta‘minlash va hosilni yig‘ishtirish kabi xizmatlarni ko‘rsatish tushuniladi.** Qishloq xo‘jaligini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining mohiyatini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqilgan yondashuvlarni hisobga olgan holda, biz shunday xulosaga kelamiz, ushbu toifa-qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarning turli darajalarida amalga oshiriladigan va barqaror, moslashuvchan rivojlanishni, samarali ishlashini ta‘minlaydigan agrosanoat majmuasida takror ishlab chiqarish jarayonlarini davlat, bozor va xo‘jalik ichidagi tartibga solish shakllari, usullari, vositalarining majmuidir. Mexanizmni amalga oshirish konsepsiyasi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm faoliyati samaradorligini baholash uchun tanlangan metodologiyaga bog‘liq bo‘ladi.

Ishning ikkinchi bobi **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis xizmatlari samaradorligi holati tahlili”**ga bag‘ishlangan. Ushbu bobda Samarqand viloyatida agroservis xizmatlari rivojlanish dinamikasi tahlili, agroservis xizmatlari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili, hamda agroservis xizmatlari samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillar tahlili keng bayon etilgan. Shu bob bo‘yicha ham tegishli xulosalar qilingan.

Samarqand viloyati yuqori iqtisodiy salohiyatga, boy tarix va madaniyatga ega. Samarqand viloyati yillar davomida mintaqa iqtisodiyotida ijobiy dinamikani saqlab qoladi. Oxirgi 2019-2023-yillarda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 9% ga oshib, 2023-yilda 74115,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi, agromahsulotlarini ishlab chiqarish 12,2 foizga, 2019-yildagi 25674,3 mlrd so‘mdan 2023-yilda 28786,2 mlrd. so‘mga oshdi<sup>11</sup>. Bundan ko‘rinib turibdiki yalpi xududiy mahsulotga nisbatan, agromahsulotlarni ishlab chiqarish 3,2 % ga tezroq o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida eng ko‘p yetishtirayotgan ekin turlaridan – bug‘doy va meva-sabzavot hisoblanadi. Ularni yetishtirish dinamikasini 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

---

<sup>10</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chigilgan.

<sup>11</sup> Stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

So‘nggi bir necha yil qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi ijobiy dinamika bilan tavsiflanadi. 2023-yilda qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekin maydoni 2019-yilga nisbatan 5,0 foizga oshib, 344446,7 gektarni tashkil qildi.

1-jadval

**Samarqand viloyatida ekin maydonlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlar ishlab chiqarishning dinamikasi<sup>12</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2019	2020	2021	2022	2023	2023 y.dan 2019 y.ga nisbatan, %
<b>Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, gektar</b>	328107	340750	359283	336799,7	344446,7	105,0
<b>Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m</b>	28379,5	33759,4	41206,1	42088,9	51216,4	185,5
<b>Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan, %</b>	103,1	102,5	104,6	101,8	104,4	101,3
<b>Yalpi hosil, tonna:</b>						
<b>Bug‘doy</b>	644921	677054	659104	664223	728865	113,0
<b>Sabzavotlar</b>	1584767	1636346	1749735	1533716	1576688	99,5
<b>Meva</b>	334802	354798	359093	356292	373369	111,5

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Samarqand viloyatida 2019-2023 yillar mobaynida, bug‘doy va meva-sabzavot ijobiy yetishtirish sur‘atlari bilan namoyish etilib, ya’ni bug‘doyni yalpi hosili bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqilayotgan davrda 13,0 foizga oshib, meva-sabzavotlar yalpi hosili – 10,5 foizga o‘sishi bilan tavsiflanadi. 2019-yildan 2023-yilgacha g‘alla yetishtirishning ijobiy davom etilishi kuzatildi. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi qishloq xo‘jaligini amaldagilar doirasida davlat dasturlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida agromahsulotlarni ishlab chiqarish, ularning sifati va hajmini oshirish, tashqi va ichki bozorlarga chiqarib, shu bilan bir qatorda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlab, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida agroservisda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar muhim o‘rin egallaydi. Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi korxonalariga ko‘rsatilayotgan agroservis xizmatlarining samarali faoliyati ko‘p jihatdan moddiy-texnika ta’minotiga bog‘liq hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida fermer va dehqon xo‘jaliklariga texnik xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish bevosita agroservis xizmatlari ko‘rsatuvchi

<sup>12</sup> Samstat.uz дастлабки маълумотлари бўйича муаллиф томонидан тузилган.

subyektlarning moddiy-texnik jihatdan ta'minlanish darajasiga bog'liqdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligini jihozlash muammolari texnologiyasi va undan foydalanish samaradorligi alohida ahamiyatga ega.

Fermer va dehqon xo'jaliklariga moddiy-texnik agroservis xizmatlari ko'rsatish asosan MTPlar tomonidan amalga oshiriladi, chunki yerni ekishga tayyorlashdan boshlab, to undan hosil olib yig'ishtirguncha barcha texnik xizmatlarni o'z ichiga oladi. Agroservis xizmatlarini tahlil qilish uchun Samarqand viloyatida agrar korxonalariga xizmat ko'rsatayotgan 5 ta MTPlarda mavjud agrotexnikalar holatini o'rganib chiqib, quyidagi ma'lumotlar keltirildi (2-jadval):

2-jadval

**Samarqand viloyatining 5 ta tuman MTPlarida agrotexnikalarning holati<sup>13</sup>  
(2021-2023-yillarda)**

№	Agroservis korxonalari	Agrotexnika, dona		Agrotexnikalarning yaroqliligi	
		jami	yaroqli	(+; -)	%
1.	Go'zalkent Agroservis MTP	104	56	-48	53,8
2.	Qo'shrabot Agroservis MTP	31	18	-13	58
3.	Jomboy Agroservis MTP	62	29	-33	46,8
4.	Narpay Agroservis MTP	57	21	-36	36,8
5.	Paxtachi Agroservis MTP	48	22	-26	45,8
	Jami:	302	146	156	48,3

Samarqand viloyatining 5 ta tumandagi xizmat ko'rsatayotgan MTPlarni o'rganganimizda, oxirgi 3 yilda, ya'ni 2021-2024-yillarda mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasi 302 ta, ularning 146 tasi soz holatda. Yaroqli agrotexnikalarning jami agrotexnikalarga nisbatan 156 taga kam bo'lib – 48,3 foizni tashkil qilmoqda.

Iqtisodiy samardorlikni aniqlash uchun yetakchi olimlarning fikrlarini o'rganishimiz natijasida biz o'shbu tushunchaga qo'yidagi ta'rifni beramiz: **agroservis sohasi samaradorligi deyilganda, ushbu sohaga barcha sarflangan resurslar va turli darajadagi ko'rsatiladigan agroxizmatlardan tushgan daromadlarni hisobga olgan holda taqdim etilayotgan xizmatlar natijaviyligini tushunamiz.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu ko'rsatkichlar amaliy ma'lumotlar asosida aniqlanadigan, agroservisda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni tahlil qilganda o'rganadigan va shu sohada samaradorlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan bo'lishi kerak. Shuning uchun yuqorida keltirilgan barcha ko'rsatkichlarni amaliyotga keng foydalanish uchun, biz mazkur ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llarini quyidagi jadvalda keltiramiz (3-jadval):

<sup>13</sup> Samstatuz ma'lumotlari asosida tayёрланган.

Agroservis korxonalarida samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar<sup>14</sup>

T/r	Ko'rsatkichlar	Hisoblash uchun formula
1.	Agroservis korxonalarida mehnat unumdorligi (AS <sub>me</sub> )	$AS_{me} = \frac{Q}{Me}$ <i>Q- agroservis xizmatlardan sof tushum; Me-agroservisda band xodimlarning o'rtacha yillik soni</i>
2.	Agroservis korxonalar xarajatlari samaradorligi (AS <sub>x</sub> )	$AS_x = \frac{Q}{X}$ <i>X- agroservis korxonalarida umumiy xarajatlar</i>
3.	Agroservis korxonalarida kiritilgan investitsiya samaradorligi (AS <sub>in</sub> )	$AS_{in} = \frac{Q}{In}$ <i>In-agroservis korxonalarida kiritilgan investitsiyalar</i>
4.	Agroservis korxonalarida asosiy vositalar samaradorligi (AS <sub>av</sub> )	$AS_{av} = \frac{Q}{Av}$ <i>Av-agroservis korxonalarida asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati</i>
5.	Agroservis korxonalarida aylanma mablag'lar samaradorligi (AS <sub>am</sub> )	$AS_{am} = \frac{Q}{Am}$ <i>Am- agroservis korxonalarida aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati</i>
6.	Agroservis korxonalarida aktivlari samaradorligi (AS <sub>ak</sub> )	$AS_{ak} = \frac{Q}{Ak}$ <i>Ak-agroservis korxonalarida aktivlarning o'rtacha yillik qiymati</i>
7.	Agroservis korxonalarida nomoddiy aktivlar samaradorligi (AS <sub>na</sub> )	$AS_{na} = \frac{Q}{Na}$ <i>Na- agroservis korxonalarida nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati</i>

Hozirgi vaqtda agroservis korxonalarida ko'p ko'rsatkichlar foydalanilmayapti. Bu esa o'z navbatida, agroservis korxonalarining moliyaviy ahvolini nochor holatga keltiradi. Bularning hammasiga sabab – agroservis korxonalarida moliyaviy tahlilning o'tkazilmaganligi, korxonalarining moliyaviy-xo'jalik ahvoliga o'z vaqtida tashxis qo'yilmaganligi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tavsiya etgan ko'rsatkichlarni agroservis korxonalariga tatbiq etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Agroservisda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining natijaviylik bilan bog'liq ko'rsatkichlar amaliyotda qo'llanilishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan "Aksoylar" xususiy firmasining ma'lumotlarini tahlil qilish uchun tadqiqotlar o'tkazdik (4-jadval):

<sup>14</sup> Darslikda berilgan ko'rsatkichlar asosida muallif tomonidan takomillashtirilgan (Pardaev M.Q. "Iqtisodiy tahlil nazariyasi". Darslik. 4-nashr. 2022. 210 b.)

**"AKSOYLAR" xususiy firmasida samaradorlik ko'rsatkichlarining 2021-2023-yillardagi holatining hisob-kitobi<sup>15</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	2021-yil	2023-yil	Farqi	O'zgarish sur'ati
1.	Umumiy tushum (daromadi) (ming so'm)	622671,0	1214650,0	591979	195,0
2.	Umumiy xarajat (ming so'm)	542625,0	628916,0	86291	115,9
3.	Xodimlar soni	12	13	1	108,3
4.	Jalb qilingan investitsiyalar hajmi (ming so'm)	304622,0	565212,0	260590	185,5
5.	Asosiy vositalar hajmi (ming so'm)	543380,0	560203,0	16823	103,1
6.	Aylanma mablag'lar hajmi (ming so'm)	480233,0	492362,0	12129	102,5
7.	Nomoddiy aktivlar hajmi (ming so'm)	9835,0	12564,0	2729	127,7
<b>Nisbiy ko'rsatkichlar</b>					
8.	Agroservis korxonalarida mehnat unumdorligi (ASme)	51889,3	93434,6	41545,4	180,1
9.	Agroservis korxonalar xarajatlari samaradorligi (ASx)	1,15	1,93	0,8	168,3
10.	Agroservis korxonalarida kiritilgan investitsiya samaradorligi (ASin)	2,04	2,15	0,1	105,1
11.	Agroservis korxonalarida asosiy vositalar samaradorligi (ASav)	1,15	2,17	1,0	189,2
12.	Agroservis korxonalarida aylanma mablag'lar samaradorligi (ASam)	1,30	2,47	1,2	190,3
13.	Agroservis korxonalarida aktivlari samaradorligi (ASak)	0,60	1,14	0,5	189,3
14.	Agroservis korxonalarida nomoddiy aktivlar samaradorligi (ASna)	63,31	96,68	33,4	152,7

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, agroservis xizmatini ko'rsatuvchi "Aksoylar" xususiy firmasi samaradorlik ko'rsatkichlarinig hammasi ijobiy o'zgarishga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan ko'rsatkich, agroservis korxonalarida aylanma mablag'lar samaradorligi ko'rsatkichi bo'lib, shu davr oralig'ida 90,3 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Yana yuqori samaradorlikka ega bo'lgan ko'rsatkichlardan agroservis korxonalarida aktivlari samaradorligi 89,3 foizga, agroservis korxonalarida asosiy vositalar samaradorligi 89,2 foizga, agroservis korxonalarida mehnat unumdorligi 80,1 foizga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, agroservis xizmatini ko'rsatuvchi "Aksoylar" xususiy

<sup>15</sup> "AKSOYLAR" xususiy firmasining 2021-2023-yildagi hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi.

firmasining 2021-yildan 2023-yilgacha bu ko'rsatkichlari qariyb ikki barobar oshgan, demak korxonada aktivlardan foydalanish darajasi ancha yaxshi.

Ammo mana shu yillar mobaynida nisbatan o'sish sur'ati past bo'lgan ko'rsatkichlar ham mavjud, jumladan agroservis korxonalarida kiritilgan investitsiya samaradorligi 5,1 foizga, agroservis korxonalarida nomoddiy aktivlar samaradorligi 52,7 foizga, agroservis korxonalar xarajatlari samaradorligi 68,3 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, bu korxonada kiritilgan investitsiyalardan yetarli darajada samarali foydalana olmayapti deyishimizga asos bo'ladi.

Agroservisda samaradorlikni ifodalash uchun tavsiya qilinayotgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim deb o'ylaymiz, chunki ushbu kategoriya o'ta serqirra va murakkabdir. Shu sabab, agroservis samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni bir nechta belgilari bo'yicha tasniflaymiz va quyidagi guruhlariga bo'lamiz:

-ishlayotgan personal nuqtayi nazaridan, mehnat resurslari samaradorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;

-agroservis korxonada nuqtayi nazaridan, moddiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;

-mulkdor nuqtayi nazaridan, uning qo'ygan investitsiyalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Agroservis korxonalarini tahlil qilganimizda, shu guruh ko'rsatkichlardan biri bo'lgan, investor nuqtayi nazaridan, uning qo'ygan investitsiyalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimiga to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Ko'rilayotgan ko'rsatkichlardan biri agroservis korxonalarining investitsiyaning umumiy samaradorligi (korxonada bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum). Ushbu formulani quyidagi formula bilan ifodalaymiz:

$$U_{in} = \frac{Q}{V}$$

**$U_{in}$**  - agroservis korxonada bir so'm qo'yilgan investitsiyaga samaradorligi;

**$Q$**  - agroservis korxonada ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi;

**$V$**  - investor tomonidan qo'yilgan investitsiyaning umumiy hajmi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ushbu ko'rsatkichga bir nechta omillar ta'sir qilar ekan. Omillarning bir-biri bilan bog'liqligini aniqlash uchun, biz quyidagi formulani tavsiya etamiz:

$$U_{in} = \frac{Q}{V} = \frac{Q}{U_{oc}} * \frac{U_{oc}}{K_u} * \frac{K_u}{S} * \frac{S}{V}$$

Bu yerda:

**$U_{oc}$**  – agroservis korxonasida ko'rsatilayotgan xizmatlar soni;

**$K_u$**  – hisobot davrida xizmat qilingan texnika soni;

**$S$**  – agroservis korxonasida band bo'lgan ishchi-xodimlarning o'rtacha soni.

Xulosa qilib aytganda, bunday omilli tahlil agroservisda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining faoliyatini yaxshilashga, sifatli ishlashga va samaradorlikni oshirishda ijobiy taklif va tavsiyalarni berishga undaydi.

Yuqorida keltirilgan agroservisda samaradorlikni ifodalash uchun tavsiya qilinayotgan ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilishda, biz amaliyotda quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirdik; va bularni agroservisda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar misolida ko'rib o'tdik. Buning uchun biz Samarqand viloyatida faoliyat olib boradigan "Jomboy Agroservis MTP" korxonasi misolida amalga oshirdik (5-jadval):

5-jadval

**"Jomboy Agroservis MTP" korxonasiga qo'yilgan investitsiyaning umumiy samaradorligini aniqlash hisob-kitobi<sup>16</sup>**

T/R	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
<b>Agroservis korxonasi agroxizmatlari bilan bog'liq hajm ko'rsatkichlari</b>					
1.	Agroservis korxonasida ko'rsatilgan agroxizmatlarning umumiy hajmi, mln. so'm	724,8	735,2	+10,4	101,4
2.	Investor tomonidan qo'yilgan investitsiyaning umumiy hajmi, mln. so'm	349,5	352,3	+2,8	100,8
3.	Agroservis korxonasida ko'rsatilayotgan xizmatlar soni, ta	220	248	+28	112,7
4.	Hisobot davrida xizmat qilgan texnika soni, dona	61	63	+2	103,3
5.	Agroservis korxonasida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni, kishi	45	48	+3	106,7
6.	Bir yilda agrotexnikalarni ishlatish quvvati, kishi (3s*260 kun)	15860	16380	+520	103,3
<b>Natijani ifodalovchi ko'rsatkichlar</b>					
7.	1 ta agroxizmatga to'g'ri keladigan o'rtacha tushum, ming so'm (1s:3s)	3294,5	2964,5	-330	89,9
